


I S T E' M O L B O Z O R I

Chakana savdo aylanmasi joriy yilning yanvar-sentabr oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,9 %ga oshdi.


Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 10,%ni tashkil etdi va o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 141,3 %ga o'sdi.

2018 yil yanvar – sentabr oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da)



O'tgan yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha tumanlarida o'sish sur'atlari kuzatildi. Xususan, yuqoriroq o'sish sur'atlari Andijon shaxri (7.9 %ga), Andijon (5,6 %ga), Marhamat (5.3 %ga), Shaxrixon (5.2 %ga) va Pahtaobod(4,7%ga) tumanlarida . Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Oltinkol (0,2 %ga), Asaka(2,1ga),Buloqboshi(2,5%ga), Bo'z (2,9 %ga) va Ulug'nor (2,7%ga) tumanlarida kuzatildi.

Tuman(shahar)larning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, %da



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Andijon shahri (28,5 %), Shaxrixon (15,5 %), Asaka (10,5%), Qo'rg'ontepa (8,3 %) va Andijon (5,6 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ovqatlanish tashkilotlarini qoʻshgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 3,2 % ga oshib, 2430,4 ming soʻmni tashkil etdi (2017 yil 1942,3 ming soʻmni tashkil qilgan edi). Oʻrtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori koʻrsatkichlari Andijon shahri (4894,2 ming soʻm), Shaxrixon (3962,1 ming soʻm) va Qoʻrgʻontepa tumanlarida (2933,2 ming soʻm) kuzatildi.


Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 83,8 mlrd. soʻmni tashkil etdi va 1,4 %ga oʻsdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 1,1 %ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi		
	Ming soʻm	Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Viloyat boʻyicha:	2430,4	103,2
Andijon sh	4894,2	106,4
Honobod sh	1550,1	102,2
<i>tumanlar:</i>		
Andijon	1623,3	103,5
Asaka	2460,7	100,1
Baliqchi	1695,9	101,4
Boʻz	1388,6	101,2
Buloqboshi	1645,6	101,0
Jalaquduq	1664,8	102,7
Izboskan	1469,3	102,6
Ulugʻnor	1258,5	100,9
Marhamat	1238,1	103,6
Oltinkoʻl	1406,6	98,4
Pahtaobod	1780,5	102,8
Hoʻjaobod	1186,9	101,7
Shaxrixon	3962,1	103,4
Qoʻrgʻontepa	2933,2	101,5

KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,0 %ga o'sdi va jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmining 90 %ini tashkil qildi. Kichik tadbirkorlik sub'ektlari umumiy tovar aylanmasi hajmining 6630.9 mlrd.so'mini uyushmagan savdo tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning ulushi (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning eng katta ulushi Bo'z -99,8 %, Ulug'nor -99,7 %, Qo'rg'ontepa -99.0 % va Jalaquduq tumanlarida -98.4 %. Eng past ulush Andijon shahrida- 72.3 % va Andijon tumanida- 92.1 % qayd etildi.

2018 yil yanvar - sentabr oylarida ULGURJI TOVAR AYLANMASI

2018 yil yanvar - sentabr oylarida ulgurji tovar aylanmasi hajmi 1301,6 mlrd. so`mni yoki 2017 yilning shu davriga nisbatan 109,3%ni tashkil qildi.

Ulgurji tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan Honobod shahrida 12,1% kamayish kuzatildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 17,3% o'sdi va 780,6 mlrd. so'mga etdi, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 60,0 % ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdodagi ulushi, (foizda)

